

TAKRORAN: Davlat statistika shakliga o`zgartirish kiritish va ayrimlarini bekor qilish to`g`risida!

Hurmatli hisobot taqdim etuvchi korxonalar va tashkilotlar rahbarlari, hisobchilari DIQQATIGA!

Toshkent shahar statistika boshqarmasi Sizlarga shuni ma'lum qiladiki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi PQ-3165-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, Davlat statistikasi qo'mitasi qarori bilan o`rnatilgan tartibda (ro`yxat raqami 2843-1, 2017 yil 17 avgust) **3-narx shakli (oylik)** "Avtomobil transporti korxonalarida yuk tashish tariflari to`g`risida hisobot"ga o`zgartirish kiritildi va 11 ta shakllar bekor qilindi (ro`yhat ilova qilinadi).

Bekor qilingan xisobot shakllari ro`yxati:

4-narx shakli (oylik) "Temir yo`l transportida yuk tashish tariflari to`g`risida hisobot"

5-narx shakli (oylik) "Havo transportida yuk tashish tariflari to`g`risida hisobot"

6-narx shakli (oylik) "Quvur yo`li transportida yuk tashish (uzatish) tariflari to`g`risida hisobot"

3- invest shakli (yillik) "Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo`naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar to`g`risida"

3-S shakli (choraklik) "Kooperatsiya birjasida tuzilgan shartnomalar doirasida tayyor mahsulot, butlovchi qism va

materiallar yetkazib berilishining borishi to`g`risida hisobot”

1-RM shakli (yillik) “Rangli metall parchalari va chiqindilarining shakllanishi hamda ishlatilishi to`g`risida”

3-eko shakli (yillik) “Chiqindilar hosil bo`lishi, foydalanilishi va ularning joylashtirilishi to`g`risida”

1-geo shakli (yillik) “Geologiya-qidiruv ishlarining bajarilishi to`g`risida 2016 yil uchun hisobot”

1-xizmat shakli (yillik) “Aholiga pulli xizmat ko`rsatish to`g`risida”

1-lizing shakli (yillik) “Lizing faoliyati bo`yicha”

7-kom shakli (yillik) “Gazlashtirish to`g`risida”